

МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ TASHKILOTLARIDA TA'LIMIIY JARYONLARNI TASHKIL QILISHDA RAHBARNING YETAKCHILIK MAHORATI

*Qoraqalpog'iston Respublikasi Beruniy
tumani 34-son DMTT direktor o'rinbosari
Yuldasheva Malika Saparbayevna*

Annatsiya: ushbu maqolada rahbarlarning ta'lim tarbiya, ish va kasbiy faoliyatida fikr almashish va ta'limiy faoliyatni boshqarish ahamiyati hamda asosiy vazifalari haqida aytib o'tilgan.

Аннотация: В статье рассматриваются значение и основные задачи лидеров в обмене идеями и управлении образовательной деятельностью в сфере образования, труда и профессиональной деятельности.

Abstract: This article discusses the importance and main tasks of leaders in the exchange of ideas and management of educational activities in education, work and professional activities.

Kalit so'zlar: rahbarning vazifalari, rahbar, hamkorlik, boshqarish mahorati, kasbiy faoliyat, munosabat.

Ключевые слова: обязанности лидера, лидер, сотрудничество, управленческие навыки, профессиональная деятельность, отношение.

Key words: responsibilities of a leader, leader, cooperation, management skills, professional activity, attitude.

Maktabgacha ta'lim – bu bolaning rivojlanishidagi eng muhim bosqich. Ushbu davrda bolalar nafaqat bilim va ko'nikmalarni, balki ijtimoiy, hissiy va axloqiy qadriyatlarni ham egallaydilar. Tashkilot samaradorligi va ta'lim sifatining yuqori bo'lishi, asosan, rahbarning yetakchilik mahoratiga bog'liq. Rahbar – nafaqat ma'muriy vazifalarni bajaruvchi, balki pedagogik jarayonni rivojlantiruvchi, innovatsiyalarni joriy etuvchi va jamoa ishiga yo'naltiruvchi yetakchi hisoblanadi.

Yetakchilik mahorati – bu boshqaruv qobiliyati, kommunikativlik, strategik fikrlash, motivatsiya berish va o‘zgarishlarni boshqarish kabi ko‘nikmalar majmuidir. Maktabgacha ta’lim tashkilotida rahbar quyidagi vazifalarni bajaradi:

- Pedagogik jarayonni rejalashtirish va tashkil etish.
- Xodimlar, ota-onalar va bolalar o‘rtasida hamkorlikni yo‘lga qo‘yish.
- Innovatsion texnologiyalarni joriy etish.
- Moliyaviy va moddiy resurslarni samarali boshqarish.

Rahbar maktabgacha ta'lim tashkilotlarning tashkilotchisi, rahbari, malakali pedagog, uning faoliyati maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni komil inson qilib tarbiyalash vazifalarini to‘la-qonli hal etishga qaratilgan. U bolalar muassasalaridagi ta'lim-tarbiyaviy, pedagogik va gigiyenik talablar muvofiq ravishda amalga oshirilishi uchun zarur shart-sharoitlarni ta'minlaydi. O‘z jamoasida ishchanlik, maqsadga qaratilgan inoqlik vaziyatini yaratadi. Ularga umumiy rahbarlik qiladi. Rahbar o‘z ishida davlatimiz va Xalq ta'limi vazirligi tomonidan qabul qilingan qaror, qonunlarga amal qiladi va o‘z ustida ijodiy ravishda ishlashni amalga oshiradi. Yuksak onglilik va siyosiy yetuklik, prinsiplilik, o‘ziga va qo‘l ostidagilarga talabchanlik, rahbarga qo‘yiladigan asosiy talablardir.

Rahbar bog‘chani kerakli texnikaviy va xo‘jalik materiallari bilan muntazam ravishda ta'minlab turishi, binoni jihozlar bilan (qattiq va yumshoq inventarlar) jihozlashi, binoni o‘z vaqtida ta'mirlashi va o‘quv-ko‘rgazmali qurollar bilan to‘ldirib borishi, turli yosh guruhi uchun dasturiy-mctodik hujjatlarda tavsiya etilgan (ularni fiziologik, aqliy, axloqiy, mehnat, estetik tarbiyalash maqsadida) bolalar badiiy adabiyoti va pedagogik adabiyotlar bilan ta'minlashi, bolalar maydonchasi va yer uchastkasini to‘g‘ri, rejali jihozlashi, kadrlarni joylashtirishda ularni bolalar bilan ishlash tajiga qarab, xodimlarning individual xususiyatlarini hisobga olishi, shifokor bilan birgalikda tibbiy ishlarini nazorat qilishi va bolalarni tizimli tibbiy ko‘rikdano‘tkazishi kerak.

Boshqarish mahorati:

➤ Rahbarning boshqaruv mahorati ta'lim muassasasining umumiy ish faoliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Samarali boshqaruv orqali rahbar o'qituvchilarni rag'batlantirishi, tarbiyalanuvchilarni motivatsiya qilishi va har bir jarayonni tartibga solishi mumkin.

➤ Rahbarning boshqaruv uslubi jamoaning ish faoliyatini yaxshilashga yordam beradi. Demokratik boshqaruv uslubi orqali rahbar o'qituvchilar va tarbiyalanuvchilarni o'z fikrlarini bildirishga undaydi, bu esa jamoada ochiq va samarali muloqotni rivojlantiradi.

Samarali yetakchilik quyidagi ijobiy natijalarga olib keladi:

➤ **Ta'lim sifatining oshishi**-Yangi metodlarning qo'llanilishi va tarbiyachilarning kasbiy saviyasining oshishi.

➤ **Jamoa muhitining yaxshilanishi**-Xodimlar o'rtasida ishonch va hamkorlikning kuchayishi.

➤ **Ota-onalar ishtirokining kuchayishi**-Ota-onalarning tarbiya jarayonida faol ishtirok etishi.

➤ **Tashkilot obro'sining oshishi:** Yuqori natijalar tufayli tashkilotning ijtimoiy imiji yaxshilanadi.

Ayrim rahbarlarga «xodimlaringiz sizga doimo bo'ysunadilarmi», deb savol bersangiz, ular «yo'q, doim emas, xodimlarim bilan til topisha olmayman», deb javob qaytaradilar. Nima uchun? Balki rahbar xodimlarini to'g'ri tushuna olmayotgandir. Demak, ba'zi rahbarlar to'g'ri ko'rsatma bera olmaydilar. Kasbiy muloqotni to'g'ri yo'lga qo'ya olish lozim. Bir-birini tushunish xodimlarning umumiy aqliy rivojlanishiga, madaniyatiga bog'liq. Ayrim xodimlarga bitta gap kam, ikkita gap ortiqcha bo'ladi, ularga 1,5 ta gapni topib ko'rsatma berish lozim. Har bir xodimning intellekt (aqliy) darajasini hisobga olib ko'rsatma berilsa, ular vijdonan bajaradilar. Rahbar xodimga mantiqiy fikr berishi kerak, jumladan, ertaga birorta materialni tayyorlab olib kiring deyishi mumkin. rahbami eshitish emas, balki tinglash, chuqur

idrok qilish ko'nikmasi bo'lishi lozim. Xodimning diqqatini to'plab olishiga imkon berishi kerak. Bir-birini tushunish uchun quyidagi 5 ta shartni aytib o'tish joiz:

- birgalikdagi kasbiy tilga ega bo'lish;
- intellekt (aqliy) darajasini hisobga olish;
- axborotning to'liq bo'lishi;
- mantiqan bayon etish;
- diqqatni bir joyga to'play olish.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari rahbarlari kadrlarning kasb mahoratini, umumiy ta'lim mahoratini, umumiy ta'lim va madaniy darajasini muntazamo'stirib borishga g'amxo'rlik qiladi; xodimlar malakasini hisobga olgan holda va maktabgacha ta'lim tashkiloti manfaatlaridan kelib chiqib, ularni tartibli va o'z vaqtidajoydan-joyga ko'chirib turilishini ta'minlaydi. Bu maqsadlar uchun ma'muriyat ruhiy-pedagogik o'qitishning huquqiy va iqtisodiy uyg'unlanishini ta'minlaydi;

xodimlar malakasini oshirishga bevosita maktabgacha ta'lim tashkilotida shartsharoit yaratadi, murabbiylik harakatini rivojlantiradi;

mamlakatda va chet ellarda pedagogik va boshqa fanlar erishgan yutuqlar haqida axborot beradi. Ma'muriyat jamoat tashkilotlari bilan birgalikda maktabgacha ta'lim tashkilotlari xodimlarini attestatsiyadan o'tkazish uchun optimal shartsharoitlarni ta'minlaydi, ularga o'z vaqtida zarur metodik yordam ko'rsatadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotida kadrlar zaxirasi shakllantirilib, ular bilan ish olib boriladi. Ta'lim tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirish maqsadida, umumiy yig'ilish qarori bilan, maktabgacha ta'lim tashkilotida yangi pedagogik texnologiyalarni amalda qo'llash ishlari amalga oshiriladi.

Xulosa shuki: Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'limiy jarayonlarni muvaffaqiyatli tashkil etish, rahbarning yetakchilik mahoratiga bevosita bog'liq. Rahbar nafaqat ma'muriy vazifalarni bajaruvchi, balki pedagogik jarayonni rivojlantiruvchi, innovatsiyalarni joriy etuvchi va jamoada ijobiy muhitni shakllantiruvchi rol o'ynaydi. Shu sababli, rahbarlarning kasbiy ko'nikmalarini doimiy ravishda rivojlantirish, ularga zamonaviy bilim va texnologiyalar bilan ta'minlash

muhim ahamiyatga ega. Boshqarish mahorati esa muammolarni tez va samarali hal qilish, jamoani rag'batlantirish va umumiy maqsadlarga erishishda yordam beradi. Bu jarayonlar ta'lim muassasasining rivojlanishi va uning yuksak natijalarga erishishini ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrda "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida" Qonuni.
- 2.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi .O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni.
- 3.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-mayda "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4312-sonli Qarori.
- 4.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22- dekabrda "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning Davlat standartini tasdiqlash to'g'risida"gi 802-sonli Qarori